**"O'zbek geologiya qidiruv" AJ**
**Yagona aksiyadorining**
**2023-yil "05" 07 dagi**
**-902-sonli qaroriga**
**14-ILOVA**

## "O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV" AKSIYADORLIK JAMIYATI AFFILLANGAN SHAXSLARNING HISOBINI YURITISH VA AFFILLANGAN SHAXSLAR BILAN BITIMLAR TUZISH TO'G'RISIDAGITARTIBI

**Toshkent -2023**



### I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu "O'zbek geologiya qidiruv" AJning affillangan shaxslarning hisobini yuritish va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish Tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-370, 07.05.2014y.) (keyingi o'rinlarda – Qonun), "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-814, 18.01.2023y.), boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Korporativ boshqaruv Kodeksi (Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 31.12.2015yildagi 9-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan) tavsiyalari, "O'zbek geologiya qidiruv" AJning (keyingi o'rinlarda - Jamiyat) Ustavi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Tartib Jamiyatning affillangan shaxslari hisobini yuritish qoidalarini, Jamiyatning affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga bo'lgan talablarni, shuningdek affillangan shaxslar va Jamiyatning affillangan shaxslar bilan bitimlari to'g'risidagi axborotni oshkor etish qoidalarini belgilaydi.

3. Ushbu Tartib Jamiyatda, shu jumladan Jamiyatning affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishda ichki nazoratning samarali tizimini tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan.

### II. JAMIYATNING AFFILLANGAN SHAXSLARI

4. Bevosita va (yoki) bilvosita (boshqa jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar orqali) qarorlar belgilashga yoki ularning Jamiyat tomonidan qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek qarorlar qabul qilishida Jamiyat shunday ta'sir ko'rsatadigan yuridik shaxslar Jamiyatning affillangan shaxslari hisoblanadi.

5. Qonunning 85-moddasiga muvofiq "Jamiyat bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar mazkur jamiyatga nisbatan affillangan shaxslar deb e'tirof etiladi."

6. Quyidagilar Jamiyatning affillangan shaxslari deb e'tirof etiladi:

a) Jamiyatimizning 20 (yigirma) foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik shaxs, shu jumladan ishonchli boshqaruvchi va ushbu yuridik shaxsning vakili;

b) Jamiyatimizning 20 (yigirma) foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga yaqin qarindoshlari bilan birgalikda egalik qiluvchi jismoniy shaxs, shu jumladan ishonchli boshqaruvchi va ushbu jismoniy shaxsning vakili;

v) Jamiyatimiz Kuzatuv kengashining a'zosi;

g) Jamiyatimiz Boshqaruvi (kollegial ijroiya organi) raisining yoxud Boshqaruv a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs;

d) Jamiyatimiz qaysi yuridik shaxs ustav fondining 20 (yigirma) foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs, shu jumladan ishonchli boshqaruvchi va ushbu yuridik shaxsning vakili;

ye) Jamiyatimizning sho'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yuridik shaxs;

j) Jamiyatimiz sho'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan Jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yuridik shaxs;

z) Yuridik shaxs ustav fondining 20 (yigirma) foizi va undan ortiq foiziga egalik qilish bilan birga Jamiyatimiz ustav fondining 20 (yigirma) foizi va undan ortiq foiziga egalik qiladigan yuridik shaxs, shu jumladan ishonchli boshqaruvchi va ushbu yuridik shaxsning vakili;

i) Jamiyatimiz Kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi ayni bir shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs Kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

birgalikda) egalik qiladigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

g) Jamiyatimiz aksiyadori (jismoniy shaxs), uning yaqin qarindoshlari va (yoki) uning affillangan shaxslari ushbu yuridik shaxsning Kuzatuv kengashi a’zolari hisoblanadigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

d) Jamiyatimiz aksiyadori (jismoniy shaxs), uning yaqin qarindoshlari va (yoki) uning affillangan shaxslari ushbu yuridik shaxsning ijroiya organi a’zosi vakolatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

Jamiyatimiz Kuzatuv kengashi a’zolari shuningdek, quyidagi qo‘shimcha axborotni taqdim etishadi:

a) o‘zlarining (Jamiyat bilan tuziladigan bitimning ikkinchi tarafi bo‘lishi mumkin bo‘lgan) yaqin qarindoshlari to‘g‘risida;

b) o‘zlarining (Jamiyat bilan tuziladigan bitimning ikkinchi tarafi bo‘lishi mumkin bo‘lgan) affillangan shaxslari to‘g‘risida;

v) Jamiyatimiz Kuzatuv kengashi a’zosi, uning yaqin qarindoshlari va (yoki) uning affillangan shaxslari 20 (yigirma) foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga (har biri alohida yoki birgalikda) egalik qiladigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

g) Jamiyatimiz Kuzatuv kengashi a’zosi, uning yaqin qarindoshlari va (yoki) uning affillangan shaxslari ushbu yuridik shaxsning Kuzatuv kengashi a’zolari hisoblanadigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

d) Jamiyatimiz Kuzatuv kengashi a’zosi, uning yaqin qarindoshlari va (yoki) uning affillangan shaxslari ijroiya organi a’zosi vakolatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

Jamiyatimiz ijroiya organi a’zolari shuningdek, quyidagi qo‘shimcha axborotni taqdim etishadi:

a) o‘zlarining yaqin qarindoshlari to‘g‘risida;

b) o‘zlarining affillangan shaxslari to‘g‘risida;

v) Jamiyatimiz ijroiya organi a’zosi, uning yaqin qarindoshlari va (yoki) uning affillangan shaxslari 20 (yigirma) foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga (har biri alohida yoki birgalikda) egalik qiladigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

g) Jamiyatimiz ijroiya organi a’zosi, uning yaqin qarindoshlari va (yoki) uning affillangan shaxslari ushbu yuridik shaxsning Kuzatuv kengashi a’zolari hisoblanadigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

d) Jamiyatimiz ijroiya organi a’zosi, uning yaqin qarindoshlari va (yoki) uning affillangan shaxslari ushbu yuridik shaxsning ijroiya organi a’zosi vakolatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;

Jamiyatimizning boshqa affillangan shaxslari – yuridik shaxslar (Jamiyatimizning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlari, Jamiyatimizning 20 foiz aksiyalariga (ulushiga) egalik qiladigan yuridik shaxslar, Jamiyatimizning yirik aksiyadorlari (20 foiz va undan ortiq) ushbu yuridik shaxsning yirik aksiyadori yoki ishtirokchisi (20 foiz va undan ortiq) hisoblanadigan yuridik shaxslar, Jamiyatimiz bosh (yuqori) tashkilotining sho‘ba korxonalari, Jamiyatimiz bilan birga bir xo‘jalik birlashmasi tarkibiga kiradigan yuridik shaxslar) shuningdek, quyidagi qo‘shimcha axborotni taqdim etishadi:

a) o‘zlarining affillangan shaxslari to‘g‘risida;

b) Jamiyatimizning affillangan shaxsi va (yoki) uning affillangan shaxslari 20 (yigirma) foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga (har biri alohida yoki birgalikda) egalik qiladigan yuridik shaxslar to‘g‘risida;



v) Jamiyatimizning affillangan shaxsi va (yoki) uning affillangan shaxslari ushbu yuridik shaxsning ijroiya organi vazifasini amalga oshiradigan yuridik shaxslar to‘g‘risida (agar Jamiyatimizning affillangan shaxsi va (yoki) uning affillangan shaxslari ishonchli boshqaruvchi (boshqaruv tashkiloti) bo‘lgan taqdirda).

24. Affillangan shaxslarga, Jamiyatimizning bosh (yuqori) tashkilotiga va Jamiyatimiz tarkibiga kiradigan xo‘jalik birlashmasiga bildirishlar va so‘rovlar Jamiyat affillangan shaxslarining dastlabki ro‘yxati tuzilgan paytdan e’tiboran 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay Jamiyat tomonidan yozma shaklda berish to‘g‘risidagi bildirish bilan buyurtma xat orqali yuboriladi.

Jamiyatning affillangan shaxslariga yuboriladigan so‘rovda Jamiyat affillangan shaxslarining affillangan shaxslar ro‘yxatini aniqlash bo‘yicha axborotni taqdim etish muddati, shuningdek ularning tegishli axborotni taqdim etmaganlik uchun javobgarligi ko‘rsatiladi.

25. Jamiyatning affillangan shaxslari Jamiyat tomonidan so‘ralgan axborotni so‘rov olingan kundan e’tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay Jamiyat manziliga berish to‘g‘risidagi bildirish bilan yozma shaklda buyurtma xat yuborish yo‘li bilan taqdim etishlari shart.

Jamiyatning affillangan shaxslari affillangan shaxslar ro‘yxatini aniqlash va to‘ldirish uchun axborot taqdim etishni rad etgan taqdirda, Jamiyatning vakolatli shaxsi yoki Jamiyatning vakolatli tuzilmaviy bo‘linmasi Jamiyatning affillangan shaxslarini yozma shaklda quyidagilar to‘g‘risida ogohlantiradi:

Jamiyatning affillangan shaxsi Qonunning 85-moddasiga muvofiq affillanganlik asoslari vujudga kelgan paytdan e’tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay Jamiyatni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan ma’lumotlarni batafsil ko‘rsatgan holda o‘zining affillanganligi to‘g‘risida yozma shaklda xabardor qilishi shart (Qonunning 105-moddasi).

Agar affillangan shaxsning aybi bilan ko‘rsatilgan axborot taqdim etilmaganligi yoki o‘z vaqtida taqdim etilmaganligi natijasida Jamiyatga mulkiy zarar yetkazilgan bo‘lsa, affillangan shaxs Jamiyat oldida o‘zi yetkazgan zarar miqdorida javobgar bo‘ladi.

Jamiyatning affillangan shaxslari affillangan shaxslarning manfaatdorligi mavjud bo‘lgan bitimlarni kelgusida aniqlash uchun qo‘shimcha axborot taqdim etishni rad etgan taqdirda, Jamiyatning vakolatli shaxsi yoki Jamiyatning vakolatli tuzilmaviy bo‘linmasi Jamiyatning affillangan shaxslarini yozma shaklda quyidagilar to‘g‘risida ogohlantiradi:

Affillangan shaxs Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to‘g‘risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma’lumotlarni, shu jumladan, bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko‘rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali jamiyatni xabardor etishi shart (Qonunning 86-moddasi);

Jamiyatning sud tomonidan aybi isbotlangan affillangan shaxsi yetkazilgan zararning, Jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuzilgan bitimni va da’voni sudda ko‘rib chiqish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rnini qoplashi shart (Qonunning 90-moddasi).

26. Aksiyadorlar – jismoniy shaxslar (20 foizdan kam ulushga ega), bosh (yuqori) tashkilot va xo‘jalik birlashmasi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda axborotni taqdim etishadi.

**Affillangan shaxslar ro‘yxatiga o‘zgartirishlar kiritish**

bitimni tuzish tartibiga Qonunda belgilangan yirik bitim tuzishga doir qoidalar qo'llaniladi.

Agar affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim summasi Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 foizigachasini tashkil etsa, qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Agar affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim summasi Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 foizigachasini tashkil etsa va Kuzatuv kengashining ikki a'zosi bitimdan manfaatdor hisoblansa, qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Agar affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim summasi Jamiyat sof aktivlari miqdorining 50 (ellik) foizidan ortig'ini tashkil etsa, qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

54. Jamiyatning Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi affillangan shaxs bilan kelgusida Jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida Aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida qaror qabul qilishga haqli.

55. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Ijroiya organining affillangan shaxslar bilan bitimlarni mustaqil tuzishi uchun Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlar ro'yxatini (bitimlarning xarakterini, ularning eng ko'p miqdorini) aniqlaydi.

**Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishdagi istisnolar**

56. Ushbu Tartib quyidagilarga nisbatan tadbiq etilmaydi:

a) Jamiyat ayni bir vaqtda Boshqaruv raisi bo'lgan bir aksiyadordan tashkil topgan davrda;

b) Jamiyatning barcha aksiyadorlari (shu jumladan, Jamiyatdagi bir aksiyador) tuzilishidan manfaatdor bo'lgan bitimlarga;

v) Jamiyatning ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun tuziladigan bitimlarga, agar qonun hujjatlariga ko'ra realizatsiya qilishning maxsus tartibi belgilanadigan monopol mahsulot, moddiy-texnika resurslarining strategik turlari bitim predmeti bo'lsa;

g) birja va kimoshdi savdolari orqali tuziladigan bitimlarga, agar Jamiyatning ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalaniladigan xom ashyo va materiallar, shuningdek Jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot bitim predmeti bo'lsa;

d) Jamiyat tomonidan joylashtirilayotgan qimmatli qog'ozlarni olishga doir imtiyozli huquqni amalga oshirishda;

ye) Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni olganda;

j) Jamiyatni qayta tashkil etishga doir tartib-taomillarni amalga oshirishda;

z) aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida joylashtirishda;

i) qimmatli qog'ozlarni qimmatli qog'ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilishda;

k) Jamiyat va affillangan shaxs o'rtasidagi bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida Jamiyat Kuzatuv kengashining yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining belgilangan tartibda oldindan qabul qilingan qarori mavjud bo'lganda.

**Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha nizolashish**

57. Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha Jamiyat aksiyadori mazkur bitimni ma'qullash haqida qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan yoxud aksiyador qaror qabul qilinishida ishtirok etmagan taqdirda nizolashishi mumkin.

58. Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra 3 (uch) ish kuni ichida aksiyadorga affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim haqida Jamiyatning ijroiya organi rahbari



tomonidan imzolangan tegishli axborotni:

a) affillangan shaxs, affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitim tarafi yozma bildirishining yoki Jamiyat tuzilmaviy bo'linmasi rahbari bildirishnomasining;

b) bitimni o'rganish natijasi bayonnomasining;

v) bitimni ma'qullash to'g'risida qabul qilingan qarorning;

g) tegishli shartnomaning, agar u tuzilgan bo'lsa, ko'chirma nusxalarini ilova qilgan holda yozma shaklda taqdim etishi shart.

Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra aksiyadorga affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimga taalluqli bo'lgan boshqa axborotni ham taqdim etishi mumkin.

59. Affillangan shaxs bilan tuzilgan qaysi bitim natijasida Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa yoxud ushbu bitim tuzilganligi oqibatida kelgusida zarar yetkazilishi mumkin bo'lsa, aksiyador o'sha bitimni haqiqiy emas deb topish yuzasidan bevosita yoxud aksiyador nomidan da'vogar bo'lib chiqishga haqli bo'lgan vakolatli davlat organlari orqali sudga murojaat qilishga haqli.

60. Jamiyatning 10 (o'n) foizdan kam bo'lmagan ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyador affillangan shaxs bilan tuzilgan qaysi bitim natijasida Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa yoxud ushbu bitim tuzilganligi oqibatida kelgusida zarar yetkazilishi mumkin bo'lsa, o'sha bitimni tuzishga doir talablar buzilishining mavjud belgilarini o'rganish uchun mustaqil ravishda auditorlik tashkilotini jalb etishga haqli. Sud tomonidan bitim tuzishga doir talablar buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, Jamiyat sudning qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran bir oy muddatda aksiyadorning auditorlik tashkilotini jalb etishga doir xarajatlarining o'rnini mazkur xizmatlarning bozor qiymatidan ko'p bo'lmagan miqdorda qoplashi shart.

61. Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim quyidagi hollarda sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

a) Qonunda bitim tuzish bo'yicha belgilangan talablarga rioya etilmaganda;

b) bitimni Jamiyat uchun zararli deb topishga doir asoslar mavjud bo'lganda;

v) bitimni tuzishda manfaatlar qarama-qarshiligi mavjud bo'lganda;

g) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda.

62. Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lganda haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas:

a) affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilgan aksiyadorning ovoz berishi aksiyadorlarning ushbu bitimni ma'qullash to'g'risida qaror qabul qilingan umumiy yig'ilishida uning ishtirok etishidan yoki ishtirok etmasligidan qat'i nazar, ovoz berish natijalariga ta'sir ko'rsatmasa;

b) mazkur bitimning tuzilishi Jamiyatga yoki da'vo bilan sudga murojaat qilgan aksiyadorga zarar yetkazilishiga sabab bo'lganligi yoki zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkinligi isbotlanmagan bo'lsa;

v) mazkur bitim bo'yicha zararlar bitim taraflarining harakatlariga bog'liq bo'lmagan holatlarning (fors-major holatlarning) natijasi bo'lganligi isbotlangan bo'lsa;

g) mazkur bitimning Qonunda nazarda tutilgan tartibda keyinchalik ma'qullanganligi dalillari ishni sudda ko'rib chiqish paytida taqdim etilgan bo'lsa.

63. Agar affillangan shaxsning aybi bilan ko'rsatilgan axborot taqdim etilmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganligi natijasida Jamiyatga mulkiy zarar yetkazilgan bo'lsa, affillangan shaxs Jamiyat oldida o'zi yetkazgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

64. Jamiyatning sud tomonidan aybi isbotlangan affillangan shaxsi yetkazilgan

qilmasa;

b) affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitim to'g'risida xabardor qilmasa, Jamiyat affillangan shaxslar bilan bitimlarni tuzish tartibining buzilishi uchun javobgar hisoblanmaydi.

## IX. YAKUNIY QOIDALAR

101. Ushbu Tartib Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ushbu Tartibni tasdiqlash bo'yicha qarori umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

102. Ushbu Tartibga qonun hujjatlari o'zgartirilganligi, Jamiyat Ustaviga, Jamiyatning ichki hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan va boshqa hollarda o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Ushbu Tartibga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

103. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ushbu Tartibga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarni tasdiqlash bo'yicha qarori umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

104. Agar ushbu Tartibning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid kelgan taqdirda, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi hamda ushbu Tartibga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, bu bandlar orqali tartibga solinadigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi me'yorlari qo'llaniladi.



*va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risidagi Tartibga 1-ilova*

**AFFILLANGAN SHAXSLAR RO'YXATI**
**(aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi bayonnomasini imzolash sanasidagi holatga ko'ra)**

| N | F.I.Sh. yoki to'liq nomi | Joylashgan yeri (yashash joyi) (davlat, viloyat, shahar, tuman) | Ular affillangan shaxs deb e'tirof etilish asosi | Asos(lar) sodir etilgan sana |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |

Ijroiya organi rahbarining F.I.Sh.: ____________
Bosh buxgalterning F.I.Sh.: ____________

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.Sh.: ____________

*Affillangan shaxslarning hisobini yuritish va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risidagi Tartibga 2-ilova*

**AFFILLANGAN SHAXSLAR RO'YXATIDAGI O'ZGARISHLAR**
**(o'zgarishlar kiritilgan sanadagi holatga ko'ra)**

| N | F.I.Sh. yoki to'liq nomi | Joylashgan yeri (yashash joyi) (davlat, viloyat, shahar, tuman) | Ular affillangan shaxs deb e'tirof etilish asosi | Asos(lar) sodir etilgan sana |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |

Ijroiya organi rahbarining F.I.Sh.: ____________
Bosh buxgalterning F.I.Sh.: ____________

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.Sh.: ____________

**Emitentning ______yil yakunlari bo'yicha**
**YILLIK HISOBOTI**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 15. | **HISOBOT YILIDA AFFILLANGAN SHAXSLAR BILAN TUZILGAN BITIMLAR RO'YXATI** | | | | | | |
| | **N** | **Bitim tuzilgan sana** | **Kontragent-ning F.I.Sh. yoki to'liq nomi** | **Bitim predmeti** | **Summasi** | **Emitentning bitimlar bo'yicha qaror qabul qilgan organi** | **Bitimlar bo'yicha qabul qilingan qarorlar-ning to'liq ta'rifi** |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 16. | **AFFILLANGAN SHAXSLAR RO'YXATI** (hisobot yilining yakuni holatiga) | | | | |
| | **N** | **F.I.Sh. yoki to'liq nomi** | **Joylashgan yeri (yashash joyi) (davlat, viloyat, shahar, tuman)** | **Ular affillangan shaxs deb e'tirof etilish asosi** | **Asos(lar) sodir etil-gan sana** |
| | | | | | |
| | | | | | |

Ijroiya organi rahbarining F.I.Sh.: ________________
Bosh buxgalterning F.I.Sh.: ________________

Veb-saytda axborot joylashtirgan
vakolatli shaxsning F.I.Sh.: ________________





**36-son muhim fakti**
**AFFILLANGAN SHAXSLAR RO'YXATIDAGI O'ZGARISHLAR**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | **EMITENTNING NOMI** | |
| | To'liq: | |
| | Qisqartirilgan: | |
| | Birja tikerining nomi: | |
| 2. | **ALOQA MA'LUMOTLARI** | |
| | Joylashgan yeri: | |
| | Pochta manzili: | |
| | Elektron pochta manzili: | |
| | Rasmiy veb-sayti: | |
| 3. | **MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT** | |
| | Muhim faktning raqami: | 36 |
| | Muhim faktning nomi: | **Affillangan shaxslar ro'yxatidagi o'zgarishlar** |

| **Jismoniy shaxsning F.I.Sh. yoki yuridik shaxsning to'liq nomi** | **Affillangan shaxsning joylashgan yeri (pochta manzili), yashash joyi (davlat, viloyat, shahar, tuman)** | **Qimmatli qog'ozlar-ning soni (pay, ulush-larning miqdori)** | **Qimmatli qog'ozlar-ning turi** | **Holat turi** |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |

| | |
|---|---|
| Emitent tomonidan affillangan shaxslar ro'yxatiga tegishli o'zgarish kiritilgan sana: | |

**Affillangan shaxslar ro'yxati:**

| **N** | **Jismoniy shaxsning F.I.Sh. yoki yuridik shaxsning to'liq nomi** | **Joylashgan yeri (yashash joyi) (davlat, viloyat, shahar, tuman)** | **Ular affil-langan shaxs deb e'tirof etilish asosi** | **Asos(lar) sodir etilgan sana** |
|---|---|---|---|---|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |

Ijroiya organi rahbarining F.I.Sh.: ________________

Bosh buxgalterning F.I.Sh.: ________________

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.Sh.: ________________

*Affillangan shaxslarning hisobini yuritish va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risidagi Tartibga 1-ilova*

**21-son muhim fakti**

**AFFILLANGAN SHAXS BILAN BITIM TUZILISHI**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | **EMITENTNING NOMI** | |
| | To'liq: | |
| | Qisqartirilgan: | |
| | Birja tikerining nomi: | |
| 2. | **ALOQA MA'LUMOTLARI** | |
| | Joylashgan yeri: | |
| | Pochta manzili: | |
| | Elektron pochta manzili: | |
| | Rasmiy veb-sayti: | |
| 3. | **MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT** | |
| | Muhim faktning raqami: | **21** |
| | Muhim faktning nomi: | **Affillangan shaxs bilan bitim tuzilishi** |
| | Kontragentning F.I.Sh. yoki to'liq nomi: | |
| | Kontragentning joylashgan yeri (pochta manzili): | |
| | Affillangan shaxsning F.I.Sh. yoki to'liq nomi: | |
| | Affillangan shaxsning joylashgan yeri: | |
| | Emitentning bitim bo'yicha qaror qabul qilgan organi: | |
| | Qaror qabul qilingan sana: | |
| | Bitim summasi (so'mda): | |
| | Bitim tuzilgan sana: | |
| | Bitim turi: | |
| | Bitim predmeti: | |
| | Bitim bo'yicha emitent kim hisoblanadi: | Oluvchi |
| | | Begonalashtiruvchi |

Ijroiya organi rahbarining F.I.Sh.: ____________________

Bosh buxgalterning F.I.Sh.: ____________________

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.Sh.: ____________________